

## LUTFIYSHUNOSLIK TARIXIGA BIR NAZAR

*Xoliqulova Xolida Yorqulovna*

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi katta o'qituvchisi  
[xolidayorqulovna@mail.ru](mailto:xolidayorqulovna@mail.ru)

**Annotatsiya.** Mavlono Lutfiy haqidagi ma'lumotlar, Lutfiy Shoshiy, shoir ismi, tug'ilgan va vafot etgan yillari, devon qo'lyozmalar, she'riy janrlar, "Gul va Navro'z" asari muallifligi masalalariga doir fikrlar manbalar hamda ma'lumotlar asosida umumlashtirildi, munozarali o'rirlarga munosabat bildirildi. Bunda Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyning "Funun ul-balogs'a", Alisher Navoiyning "Badoe ul-bidoya", "Majolis un-nafois", "Nasoyim ul-muhabbat", "Holoti Pahlovon Muhammad", "Muhokamat ul-lug'atayn", G'iyosiddin Xondamirning "Makorim ul-axloq", XVI -XX asrlarda yaratilgan "Tazkiran ut-tavorix", "Riyaz ush-shuar" kabi manbalardagi ma'lumotlar, lutfiyshunos olimlarning qarashlari qiyoslandi, tahlil etildi, xulosalar berildi.

**Kalit so'zlar.** Mavlono Lutfiy, Hiri, Shoshiy, manbalar, lutfiyshunoslik, devon, qo'lyozmalar.

## LUTHFIY ÇALIŞMALARININ TARİHİNE BİR BAKIŞ

*Kholikulova Kholida Yorkulovna*

Semerkant Ekonomi ve hizmet enstitüsü akademik lisesi öğretmeni

**Özet.** Mevlana Lütfi, Lütfiyi Şoşî hakkında bilgiler, şairin adı, doğum ve ölüm yılları, divan yazmaları, şiir türleri, "Çiçek ve Nevruz" adlı eserin yazarlığı hakkındaki görüşler kaynak ve bilgilere dayanarak özetlenerek, tartışmalı noktalara degenilmiştir. Bunda Şeyh Ahmed ibn Hudoydad Tarazi'nin "Funun ul-baloga"si, Alisher Navoi'nin "Badoe ul-bidoya"si, "Majolis un-nafois", "Nasoyim ul-muhabbat", "Holoti Pahlovon Muhammad", "Muhokamat ul-lughayn", Ghiyosiddin Khandamir'in "Makarim'i gibi kaynaklardan alınan bilgiler yer almaktadır. 16-20. yüzyıllarda yaratılan "ul-ahloq", "Tazkiran ut-tavorikh", "Riyaz ush-shuar" ile lütuf alimlerinin görüşleri karşılaştırılmış, analiz edilmiş ve sonuçlar çıkarılmıştır.

**Anahtar kelimeler.** Mevlana Lütfi, Hiri, Şoşî, kaynaklar, Lütfi çalışmaları, divan, yazmalar.

## ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ ИССЛЕДОВАНИЙ ЛУТФИЙ

*Холикулова Холида Ёркуловна*

старший преподаватель академического лицея  
Самаркандского института экономики и сервиса

**Аннотация.** Информация о Мавлоно Лутфи, Лутфи Шоший, имя поэта, годы рождения и смерти, рукописи дивана, поэтические жанры, авторство произведения "Гуль и Навруз" обобщены на основе источников и информации, высказаны мнения по дискуссионным вопросам. При этом были сопоставлены и проанализированы сведения из таких источников, как "Фунун ул-балога" Шейха Ахмада ибн Худойдода Тарози, "Бадое ул-бидоя," "Маджалис ун-нафоис," "Насойим ул-мухаббат," "Холоти Пахловон Мухаммад," "Мухокамат ул-лугатайн," "Макарим ул ахлок" Гиёсиддина Хондамира, "Тазкират ут-таворих," "Риёз уши-шуаро," созданные в XVI-XX веках, взгляды учёных-поэтов.

**Ключевые слова.** Мавлана Лутфи, Хири, Шаши, источники, лутфиведение, диван, рукописи.

## A LOOK AT THE HISTORY OF LUTHFIY STUDIES

*Kholikulova Kholida Yorkulovna,*

*head teacher of the academic lyceum of the Samarkand institute of economics and service*

**Abstract.** Information about Mawlana Lutfi, Lutfi Shoshi, the poet's name, birth and death dates, manuscripts of the divan, poetic genres, opinions on the authorship of the work "Gul and Navruz" were summarized based on sources and information, and opinions were expressed on controversial points. In this regard, information from sources such as Sheikh Ahmad ibn Khudoydod Tarozi's "Funun ul-balogs'a," Alisher Navoi's "Badoe ul-bidoya," "Majolis un-nafois," "Nasoyim ul-muhabbat," "Holoti Pahlavon Muhammad," "Muhokamat ul-lug'atayn," Ghiyosiddin Khondamir's "Makorim ul-axloq," "Tazkirat ut-tavorix," "Riyoz ush-shuaro," created in the 16th-20th centuries, and the views of Lutfi scholars were compared, analyzed, and conclusions were drawn.

**Keywords.** Mavlono Lutfiy, Hiri, Shoshiy, sources, Lutfiy studies, divan, manuscripts.

Musulmon Sharqi, ayniqsa, Markaziy Osiyoning madaniyati tarixida Amir Temur va temuriylar hukmronlik davri - XIV asr ikkinchi yarmidan XVI asrning boshlarigacha bo'lgan davr so'nggi umumiy tarixiy rivojlanishga juda katta ta'sir ko'rsatgan yorqin sermazmun, samarali davr hisoblanadi. Bu davrda o'zbek tili adabiy til sifatida uzul-kesil shakllandi va Markaziy Osiyoning so'nggi madaniy rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu yuksalish, birinchi navbatda, Amir Temur nomi va faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lsa, uning o'g'illari, nabira va boshqa avlodlari u boshlab bergan ijtimoiy-madaniy hayotdagi yo'nalishlarni davom ettirishga, temuriylar saltanatining an'analarini saqlab qolishga harakat qildilar. Shu davrlarda o'zbek adabiyotida Lutfiy, Atoiy, Gadoiy, Sakkokiy kabi zabardast shoirlar yetishib chiqqan. Ular o'z ijodiy faoliyati orqali ming yillik tarixga ega bo'lgan adabiyotimizning rivojiga o'z hissasini qo'shgan.

XIV-XV asr o'zbek adabiyotining zabardast vakili shoir malono Lutfiydir. Mavlono Lutfiyning hayoti va adabiy merosi haqida qator yozma manbalarda, jumladan, Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyning 1437-yilda Mirzo Ulug'bekka bag'ishlab yozilgan "Funun ul - balog'a", Alisher Navoiyning "Badoe ul bidoya", "Majolis un - nafois", "Nasoyim ul - muhabbat", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Muhokamat ul-lug'atayn", G'iyosiddin Xondamirning "Makorim ul axloq", XVI –XX asrlarda yaratilgan "Tazkirat ut-tavorix", "Riyoz ush - shuaro" kabi asarlarda ma'lumotlar uchraydi. Ammo ular shoirning biografiyasini to'liq yoritishga imkon bermaydi. Chunki shoirning taxallusi ma'lum bo'lgani holda hozirga qadar uning asl nomi, ota-onasi, tug'ilgan yil va joyi, tahsil joylari, safarlar va shunga o'xshash muhim sanalgan masalalarga tegishli ma'lumotlar noma'lum bo'lib, shuning natijasida bu muommolarga doir turli taxmin va mulohazalarning aytishiga sabab bo'lib kelmoqda. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, Lutfiy 1366-yili Hirot chekkasidagi Dehikanor nomli yerda tug'ilgan, hayotining ko'p qismini shu yerda o'tkazgan va Navoiy aytganidek, 99 yil umr ko'rib shu yerning o'zida dafn qilingan: "to'qson to'qqiz yashadi... Bu faqir borasida ko'p fotihalar o'qubtur. Umed ulkim, chun darvesh kishi erdi, ba'zi mustajob bo'lmish bo'lg'ay.

Mavlononing qabri shahr navohisida Dehikanordakim, o'z maskani erdi, andadurur".[1, 62]

Demak, vafot etgan joylari Hirotning Dehikanoridadur. Lekin shoirning tug'ilgan joyi haqida turlichha fikrlar uchraydi. 1993- yil professor Ergash Umarov tomonidan Angliyaning Bodlean kutubxonasidan topilgan "Funun ul - balog'a" asarida "... ma'danul -latoyif Lutfiy Shoshiy", "Lutfiyi Shoshiy aytur" tarzida ta'riflar uchraydi. Bu ma'lumotlarga tayanib adabiyotshunos olim A.Hayitmetov Lutfiyning toshkentlik ekanligini, ma'lum sabablar bilan Hirotga borib, u yerda keyinchalik katta obro'topganligini ta'kidlaydi.[5]

Bu xususda akademik B.Valixo'jayev o'zining "Malik ul-kalom mavlono Lutfiy" risoldasida ilmiy mulohazali fikrlar beradi. Olim yuqoridagi fikrlarga Alisher Navoiyning "Majolis

un - nafois”ining ikkinchi tahriridan (1498) “Mutaqaddim turkigo‘y shuarodin xoh mavlono Lutfiy va xoh mavlono Sakkokiykim, Movarounnahrda malik ul-kalom erdilar...”, “Malono Lutfiy Xuroson mulkida turkiy va forsiyda malik ul-kalom erdi” kabi parchalarni muqoyasa qilgan holda Lutfiyning tug‘ilgan vatani haqida hozircha ikki mulohaza: biri – Toshkent, ikkinchisi- Hirot ekanligini aytib o‘tadi. [9, 15-17]

Shu o‘rinda Lutfiyning ko‘pgina manbalarda “Lutfiyi Hiriy” deb nomlanishi uning sabzavorlik, nishopurlik, kashmirlik, mashhadlik va boshqa Lutfiy taxallusli ijodkorlardan farplaydi. Shuning uchun ham ko‘p hollarda shoirning tug‘ilgan yurti Hirotning Dehikanori deb aytib o‘tiladi.

Mavlono Lutfiyning asl nomi, ota – onasi, tahsil yillari haqida ham ma’lumot qariyb uchramaydi. Ayrim manbalarda, jumladan, maktab darsliklarida shoirning ismi Lutfullo deb keltirilgan. Lekin bularni ham ilmiy asoslangan deb bo‘lmaydi. Mavlondoning tarjimayi holiga doir qisqacha ma’lumotlarni Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”ida “Mavlono yigitligida ulumi zohiriysi takmil qilg‘ondin so‘ngra Mavlono Shahobiddin Xiyoboni (alayhirrahma) qoshida sufiya tariyqida ham suluk qilg‘ondur. Aziz va mutabarrak kishi erdi” [1, 62], - tarzida uchratamiz.

Ma’lumki, mavlono Lutfiyning hayoti va adabiy faoliyati Amir Temur hamda uning o‘g‘li va nabiralaridan bo‘lmish Shoxruh Mirzo (1409-1447), Mirzo Ulug‘bek (1409-1449), Abulqosim Bobur (1452-1457), Abu Said Mirzo (1452-1468) va sulton sohibqiron Husayn Boyqaro (1469-1506) hukmronliklari davrida kechdi. Shunday bo‘lsa-da, shoir tug‘ilgan va vafot etgan yili haqida Alisher Navoiy va Xondamir asarlarida aniq ma’lumotlar keltirilmagan. Adabiyotshunos olim Ismoil Hikmat Ertaylon XV asrda yashagan Abdulloh Kobuliyning “Tazkirat ut-tavorix” asaridagi ma’lumotga asoslangan holda mavlondoning tug‘ilgan yilini 1395 (hijriy 797), vafotini 1492 -(hijriy 879) yil deb aytgan. Bu ma’lumot A.O‘rinboyevning “Sharofiddin Ali Yazdiy va uning “Zafarnoma” asari qo‘lyozmasi” nomli maqolasida ham uchraydi. Ko‘pchilik olimlar (E.Ahmadxo‘jayev va boshqalar) shoirning tug‘ilgan va vafot etgan yilini 1366-1465-yillar deb ko‘rsatadi. Akademik B.Valixo‘jayev bu yillarning hech birga qo‘shilmagani holda o‘z fikrlarini quyidagicha izohlaydi: “Alisher Navoiy o‘zigacha bo‘lgan davrda she’rlarini devon holga keltirgan shoirlar haqida gapirganda ularni ikki guruhga ajratadi: birinchi guruhga “baqo mulkida foniy” bo‘lganlar, ya’ni vafot etganlarni, jumladan, Amir Xusrav Dehlaviy va Xoja Hofiz Sherziylarni kiritadi va ularni “avvalgi zumradin<sup>10</sup>” deb uqtiradiki, bu tabiiy holdir.

Ikkinci guruhga “holo fano dayrida boqiydurlar” (hozirgi kunda boqiydurlar – borlar - tiriklar) deb Abdurahmon Jomiy, mavlono Sakkokiy, mavlono Lutfiy va Shayxim Suhayliylarning ham o‘z she’rlaridan devon tuzgan shoirlar sifatida kiritadi va “devonlari mavjud bo‘lg‘ay” deb yozadi. Demak, “Badiyi ul-bidoya” ning debochasi yozilayotgan vaqtida, ya’ni 1478-1479-yillar Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliylar kabi mavlono Sakkokiy va mavlono Lutfiylar ham tirik bo‘lganlar va devonlari mavjud bo‘lgan...

Bas shunday ekan, mavlono Lutfiy 1478-1479-yillarda tirik bo‘lganlar va Davlatshoh Samarqandiyining tazkirasi yozilayotgan vaqtida – 1486-1487-yillarda vafot etgan kishi sifatida tilga olinar ekanlar, unda mavlono Lutfiy taxminan 1482-1483-yillarda olamdan o‘tgan deb hisoblansa va shundan kelib chiqib tug‘ilgan yillarini taxminan 1385-1486-yillar deb hisoblansa, haqiqatga yaqin bo‘lsa kerak deb o‘ylaymiz”. [9, 12-13]

Lutfiy o‘zbek adabiyotining Alisher Navoiyga qadar yetishgan eng katta va atoqli namoyandasidir. Ma’lumki, mavlono Lutfiy turkiy va forsiy tillarda ijod qilib, o‘z she’rlarini devon shaklida tartib bergen. Bu haqida Navoiy “...o‘z zamonining malik ul – kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo‘q erdi, ammo turkiyda shuhrati ko‘prak erdi va turkcha devoni ham mashhurdir va mumtaazzirul javob matla’lari bor, ul jumladin biri budurkim:

Nozukluk ichra belicha yo‘q tori gisuyi,  
O‘z haddini bilib, belidin o‘ltirur quyi.

Yana bir bukim:

<sup>10</sup> “zumra” – guruh, toifa.

Sayd etti dilbarim meni oshufta sochdin,

Soldi kamand bo'y numa ikki qulochdin", - [1, 61]

deb yozadi. Hozirgi kunda Lutfiyning turkiy sh'rlaridan iborat devonining turli davrlarda ko'chirilgan qo'lyozma nusxalari ma'lum. Nusxalar soni haqida fikrlar turlicha. Akademik B.Valixo'jaev "XVI-XIX asrlar davomida ko'chirilgan 33 qo'lyozma nusxa"si [9, 25] borligini ta'kidlasa, E.Ahmadxo'jaev esa "noma'lum yangi – yangi nusxalari aniqlanib shoir devoni qo'lyozmalarining soni 34 taga" [4, 40] yetkazilganligini aytadi. Bundan ko'rindaniki, Lutfiyning lirikasiga bo'lgan qiziqish katta bo'lgan. Uning muxlislari devonning Toshkent, Sankt – Peterburg, Dushanbe, Istanbul, Tehron kabi nusxalarini yaratishga ehtiyoj sezganlar.

Shoirning forsiy tildagi asarlarini to'plab devon tuzgani bizga ma'lum bo'lmasa-da, uning bu tilda ham katta mahorat bilan ijod qilganligini zamondoshlari munosib baholagan edilar: "Akbarshoh zamonida yashagan Abdulloh Kobuliy o'zining "Tazkirat ut -tavorix" asarida Lutfiy merosi haqida so'z ochib "dar forsi she'ri zebo va qasidai g'arro dorad" ("forsiyda go'zal she'rlari va porloq qasidalari bor") deb aytadi.[7, 246]

Shoir Lutfiy lirikasining hajmi va janrlar tarkibi haqida gapiradigan bo'lsak, boy meros qolganligiga amin bo'lamiz.[9, 96] Lutfiy she'riyatining baytlar soni haqida ilk ma'lumotni Xondamirning "Makorim ul - axloq"ida uchratamiz.Unda shoirning turkiy va forsiyda yozilgan 10-12 ming bayti haqida so'z boradi.Abdulloh Kobuliy o'zining "Tazkirat ut - tavorix" asarida 3 ming baytga yaqin she'rlari borligini aytsa, lutfiyshunos olim E.Ahmadxo'jayev Lutfiyning 2774 bayt – 5548 misradan ortiq she'riy merosini aniqlagan. B.Valixo'jayev shoir she'riyatning hajmini 2774 bayt – 5548 misra deb e'tirof etadi.[9, 25]

Lutfiy devonining janriy ko'lami ham turlicha ko'rsatiladi: 5 xil – g'azal, tuyuq, qit'a, ruboiy, qasida (N.Mallaev); 7 xil- g'azal, qasida, ruboiy, to'rtlik, tuyuq, qit'a, fard (B.Valixo'jayev) deb ta'kidlanadi.

Lutfiy devonida yetakchi janr g'azal bo'lib, uning soni 372 ta bo'lib 4172 misra – 2774 baytni tashkil etadi. Bu g'azallarning ko'pchiligi 5-7 baytdan iborat bo'lib, 9 baytlilari ham bor. Lutfiyning bizgacha yetib kelgan she'riyatida g'azal janridan keyin son jihatdan to'rtlik va uning turlari turadi. Lutfiy to'rtliklarining xillari – to'rtlik, ruboiy, to'rt misralik qit'a, tuyuqlardan iborat. Navoiy o'zining "Holoti Pahlavon Muhammad" asarida Lutfiyni "hohir ahli shuarosi", ya'ni dunyoviy mavzular talqinida mahorat ko'rsatgan shoir sifatida alohida xarakterlaydi. Shoir lirikasida ancha keng o'rin tutgan dunyoviy mavzular, ayni paytda diniy – tasavvufiy mavzular bilan uyg'unlashib, bir –birini to'ldirib keladi.Shu tarzda ular majoz va haqiqat birligini tashkil eatdi. Shoir oshiq, mahbuba va raqib obrazlarini, ularning turli holat va kayfiyatlarini tasvirlab, insoning ruhiy kechinmalarini mohirlik bilan ochadi, rang – barang badiiy usullar qo'llaydi.

Alisher Navoiy keltirgan ma'lumotlar orqali mavlono Lutfiy "Zafarnoma" nomli asarni o'n ikki ming bayt hajmida masnaviy tarzida tarjima qilganligini bilish mumkin. "Zafarnoma"ning muallifi Sharofiddin Ali Yazdiy degan fikr hozirgi kunda mavjud bo'lib, bu haqda turlicha qarashlar bor. [1, 28-29] Afsuski, asar muallafi haqida Alisher Navoiy hech qanday ma'lumot bermaydi. Lutfiy "Zafarnoma"sini tugatmagan yoki oqqa ko'chirmagan bo'lishi mumkin.[9, 212] Asar temuriylardan Boysung'ur Mirzo va Shohruh Mirzoga bag'ishlangan.

Yaqin kunlargacha mavlono Lutfiyga nisbat berilayotgan "Gul va Navro'z" dostoni keyingi yillarda ilmiy muomalaga kiritilgan manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra Haydar Xorazmiyniki deb ko'rsatilmoqda. Bu mavzuga doir ilmiy munozaralar bir qator maqola va ilmiy asrlarda ko'zga tashlanadi. Jumladan, Z.M.Boburning "Risolayi aruz" asarining 1970-1971-yillarda nashr qilinganidan so'ng boshlanib, S.Erkinovning "Yana "Gul va Navro'z"ning muallifi haqida", E.Fozilovning "Lutfiyning "Gul-u Navro'z'i haqida", B.Valixo'jayevning "Gul va Navro'z" bahsiga doir", A.Hayitmetovning "Dilimizga juda yaqin", Y.Is'hoqovning "Gul va Navro'z"ning muallaifi masalasi", A.Rustamovning "Gul-u Navro'z"ning muallifi to'g'risida" kabi ilmiy maqolalarida bu haqda munozarali fikrlar olib borilgan.

Ahmad Taroziyning “Funun al – balog‘a” asari 1994-yilda topilgach, bu masala o‘z yechimini topdi. Asarda aytishicha, “Gul va Navro‘z” dostoni Lutfiy qalamiga emas, Haydar Xorazmiy qalamiga mansub.

Xulosa qilib aytganda, Mavlono Lutfiy hayoti va ijodiga doir manbalar anchagina bo‘lsa-da, lekin ijodkor haqidagi ma’lumotlar bizgacha to‘liq yetib kelmagan. Yangi manbalarning topilishi ayrim noaniqliklarni bartaraf etishi bilan birga, boshqa munozarali, muommoli ma’lumotlarni beradiki, bu lutfiyshunos mutaxassislar oldida bir qancha amalga oshirilishi kerak bo‘lgan vazifalar borligini ham belgilaydi. Umid qilamizki, kelajakda adabiyot tarixiga doir noaniqliklarga yechim beradigan qo‘lyozmalar aniqlanadi, o‘rganiladi. Bu esa mumtoz adabiyot tarixi sahifalarini yangi yangi ma’lumotlar bilan boyitadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. 15 томлик, 12-том. – Т.: F.Фулом номидаги БАН., 1966.
2. Ахмадхўжаев Э. Лутфийнинг янги топилган фардлари:// “Адабий мерос” тўплами, 1976 йил, 6-сон, 39-42- бетлар.
3. Ахмадхўжаев Э. Мавлоно Лутфий Навоий таърифида:// “Адабий мерос” тъплами, 1984 йил, 1-сон. 40-49-бетлар.
4. Ахмадхўжаев Э. Туркий назмнинг сеҳргари. – Т.: Фан, 1992. – Б.68.
5. Ҳайитметов А. Дилемизга жуда яқин. // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 1998 йил, 17-апрел, 5-б.
6. Buriyeva, F. (2024). Zamonaviy she’riyatda diniy-tasavvufiy mavzu va timsollar an’anaviyligi. *Miasto Przyszlosci*, 53, 1347-1350.
7. Исҳоқов Ё. “Гул ва Наврӯз”нинг муаллифи масаласи. //“Ўзбек тили ва адабиёти” журнали, 1972 йил, 1-сон.
8. Маънавият юлдузлари.–Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001. -Б. 408.
9. Навоийнинг нигохи тушган. – Т.: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. - Б. 400.
10. Валихўжаев Б. Малик ул – калом мавлоно Лутфий. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1999. - Б.115.
11. Эркинов С. Яна “Гул ва Наврӯз”нинг муаллифи ҳақида.//”Ўзбек тили ва адабиёти” журнали, 1972 йил, 2-сон.